

**TO`QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT IMKONIYATLARINI
OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Iskandarova Munisa Hasan qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

munisaravshanova@mail.ru

Iskandarov Samandar Iskandar o`g`li

O`zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi talabasi

samandar.iskandarov99@mail.ru

Ravshanova Laziza Hasanovna

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

lazaravshanova7077@gmail.com

Annotatsiya: *To`qimachilik sanoat korxonalarini eksport imkoniyatlarini oshirishda xorijiy investitsiyalardan foydalanish bugungi kunda iqtisodiyotimizda dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, maxalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid maxalliy me`yoriy xujjatlarni o`rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik.*

Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz sanoat korxonalaridagi faoliyatida xorijiy investitsiyalar holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma`lumotlar asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o`rgandik. Undan tashqari horijiy banklarni bu sohadagi tajribasi bilan ham tanishib chiqdik.

O`rganilgan va taxlil qilingan ma`lumotlar asosida xorijdan ko`proq investitsiya jalb qilish choralari bo`yicha ilmiy va amaliy asoslangan huloosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarida aynan to`qimachilik sohasiga taalluqli bo`lgan rivojlantirish strategiyalarini olib borishga qaratilgan prezidentimiz qarorlarini o`rganib chiqib, bu qarorlarni tahlil qildik. Prezidentimiz qarorlari va bu sohaga tegishli takliflarni o`ragnilgan holda eksport salohiyatini qanday qilib oshirishni tahlil qildik.

Kalit so`zlar: *to`qimachilik sanoat korxonalarini, investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, eksport darajasi, investitsiya portfeli, kapital eksporti, ustav kapital, dividend, tadbirkorlik foydasi, eksport, import*

Kirish

O`zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o`ziga xos yo`nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o`rin tutishini o`z vaqtida to`g`ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, chet el

investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish gullab yashnatish uchun nafaqat ichki balki xorijiy kredit va investitsiyalarning ham o'z hissasi bor. Xorijiy investitsiya va kreditlar olishdan ham asosiy maqsad iqtisodiyotimizni qoloq rivojlanmagan tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qabul qilindi , ya'ni taraqqiyot strategiyasining 7- bo'limida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilandi. Yurtimizga chet eldan investitsiya jalb qilish yoki xorijiy institutlardan kredit olish mamlakatimiz iqtisodiyotini kengaytiriladi ishlab chiqarish , xizmat ko'rsatish kabi sohalarga yangi texnika texnologiyalar joriy qilinadi, zamonaviy standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqiriladi, va eksportbop tovarlar yaratiladi .

Bugungi kunda sanoat korxonalarini rivojlanishi , iqtisodiy tomonlama keskin suratlarda o'sib borishi muhim masalaga aylanib bormoqda. Aynan ishlab chiqarish sohasida ichki va tashqi ya'ni xorijiy investitsiyalar kata ahamiyat kasb etadi. To'qimachilik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish soni qanchalik ortib boravergani sayin shunchalik eksport imkoniyatlari tobora oshib borishini bilamiz. Shu sababli ushbu tadqiqot mavzusi dolzarb mavzulardan biri deb bimalol e'tirof etishimiz mumkin.

Zamonaviy dunyoda investitsiyalar sanoat rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Korxonalarining investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish ularning rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi. Raqobat ustunligi va barqaror o'sishga erishish investitsiya tendentsiyalari va imkoniyatlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi.

Asosiy qism

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustivor sohasiga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik biznesni, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko'maklashadi, davlat byudjetiga soliq tushumining kelib tushishi ko'payadi.

Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga keng miqyosda jalb etish o'tish davrining strategik va joriy vazifalarini hal etish zaruriyati bilan bog'liq. Ushbu vazifalarni bajarish natijasida o'tgan yillarda investitsiyalarning o'sishi jadallashdi.

Ushbu tadqiqot ishimizda to'qimachilik sanoat korxonalarining investitsiya salohiyati tahlilini taqdim etamiz va ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hozirgi tendentsiyalar va yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz. Biz investitsiyalarni jalb qilishga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalari duch keladigan istiqbollari va muammo-larni baholaymiz.

To'qimachilik sanoat korxonalarining investitsiya salohiyati va rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish nafaqat kompaniyalarning o'zlari, balki butun iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. U o'sish imkoniyatlarini aniqlash, sarmoya kiritishning ustuvor yo'nalishlari va jahon bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Olib borilgan tahlil va hulosalar fan uchun ilmiy maqolalar, tezis va boshqa tadqiqot ishlarini yozishda, qarorlar qabul qilishda, nazariy hulosalarga asoslanishda hamda taqqoslama tahlilda qo'llanilishi mumkin.

Yengil sanoat mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan tarmoqlardan biridir. Ushbu sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari kengligini e'tiborga olib, tarmoqning samaradorligini yanada oshirish, xalqaro bozorlarga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat brendini butun dunyoga tanitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. To'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoatini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish, paxta xom ashyosini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi va rentabelligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora- tadbirlar izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrda PQ-2687-son qarori bilan 2017- 2019- yillarda to'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari dasturi tasdiqlangan. Ushbu masala bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlili raqobatbardoshlik nafaqat baholash xarakteristikasi, balki boshqaruvning eng muhim ob'ektlaridan biri degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Raqobatbardoshlikni boshqarish metodologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega va alohida yondashuvni talab qiladi. Xom ashyo eksportchisi va xorijiy yuqori texnologiyali mahsulotlarning importchisi bo'lmaslik uchun sanoat korxonalarining, ayniqsa yengil sanoat kabi tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bugungi kunda respublikada 7 mingga yaqin korxonalar faoliyat olib borayotgan yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan to'qimachilik tarmog'i shakllantirildi. 1,4 million tonna hajmdagi paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi, shundan 60 foizga yaqinidan mahalliy to'qimachilik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanilmoqda. Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab

chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta xom ashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda. 1- jadvaldan kurinib turibdiki yengil sanoatning bir yo'nalishi bo'lgan To'qimachilik sanoatida raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan loyihalar natijasida 2026- yilgacha sezilarli darajada o'sish kutilmoqda. Jumladan ip kalava yo'nalishi bo'yicha 1.5 barobar, tayyor gazlamalar yo'nalishi bo'yicha 4.3 barobar, trikotaj matolar yo'nalishi bo'yicha 2.8 barobar, tikuv- trikotaj maxsulotlari yo'nalishi bo'yicha 1.7 barobar, paypoq maxsulotlari yo'nalishi bo'yicha 1.1 barobar, eksport bo'yicha 2.6 barobar o'sish kutilmoqda . **(1-jadval)**

Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish borasida marketing strategiyalarni ishlab chiqish maqsadida quyidagi tadbirlarni o'tkazishni tavsiya etamiz: korxonalar mahsulotlarining aksariyat qismi eksportga yo'naltirilganligini e'tiborga olgan holda, eksport bo'limi mutaxassislarida marketing xizmatlari ko'nikmalarini rivojlantirish; bugungi kunda reklama faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari ko'pligini e'tiborga olib ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish, korxonaning internetdagi saytini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar reklamasi, mahsulotlar tavsifi, sifat darajasi, ISO standartlari asosida mahsulot ishlab chiqarilayotganligi kabi ma'lumotlar bazasi bilan ta'minlash; korxonani rivojlantirish bo'yicha har bir bo'lim va tsexlarning strategik rejalarini ishlab chiqish; raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida ishchi - xodimlar lavozim yo'riqnomalari tarkibini qayta

ko'rib chiqish va mahsulot sifat darajasini oshirish bo'yicha talablar kiritish; buyurtmaga ko'ra mahsulot tayyorlanayotganda ipning turiga mos paxta sortidan foydalanish, qoldiqlardan foydalanmaslik, boshqa sort paxtalarni aralashtirmaslik kabi korxonalar imijiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olish bo'yicha ishchi-xodimlar mas'uliyatini oshirish; sohaga berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalangan holda, to'qimachilik sohasida eng ilg'or davlatlardan zamonaviy stanoklar olib kelish va mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur.

1- jadval.

To'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoatini 2021- 2026 yillarda rivojlantirishning maqsadli parametrlari

Mahsulotlar nomi	O'lchov birligi	Xisobot	Prognoz				O'sish sura'ti
			2021 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	
To'qimachilik va tikuv- trikotaj	million dollar	6 352,10	8 402,20	9 681,10	11 405,50	13 032,50	2,5 barobar

mahsulotini ishlab chiqarish hajmlari							
Ip kalava	ming tn.	862,3	963	990,3	1 032,50	1 300,00	1,5 bar.
Tayyor gazlamalar	million kv.m	716,2	1 215,00	1 860,00	2 710,50	3 100,00	4,3 bar.
Trikotaj matolar	ming tn.	203,8	312	390	485	580	2,8 bar.
Tikuv- trikotaj mahsulotlari	million dona	1 997,80	2 850,00	3 080,00	3 205,30	34 661,70	1,7 bar.
Paypoq mahsulotlari	mln. juft	458,4	470	480	490	505	1,1 bar.
Eksport	mln.doll.	2 931,20	4 290,70	5 407,50	6 524,20	7 641,00	2,6 barobar

Xulosa

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy

rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga chet el kapitalini jalb qilish.

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalarga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo'lishlari zarur.

5. Eksportga ishlaydigan kichik korxonalarini ko'paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2016 yil 21 dekabrda "2017- 2019 yillarda to'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ- 2687- sonli qarori.

2.Филюков К.Ю. Разработка механизма управления конкурентоспособностью предприятий легкой промышленности на основе совершенствования методических подходов к её оценке и регулированию. Автореферат дисс...к.э.н., Санкт- Петербург, 2010.; Максимова И.В. Оценка конкурентоспособности промышленного

3.предприятия // Маркетинг. - 1996, №3. 33- 39 б.; Boltabaev M.R. "To'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatdoshligini baholash uslubini takomillashtirish". T:,"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2011, №1. 1- 2 b.

4.Чайникова Л.Н., Чайников В.Н. Конкурентоспособность предприятия:учебное пособие. - Тамбов: Изд- во Тамб. гос. техн. ун- та, 2007. - 192 б.